

QALAMPIR YALPIZNING XALQ TABOBATIDAGI AHAMIYATI

D.Janazaqova

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti assistenti

R.Abduraxmonova

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada dorivor o'simliklar to'g'risida shu bilan birga qora yalpiz dorivor o'simligining xalq tabobatidagi o'rnini va uni bugungi kunda yetishtirish uchun amalga oshirilayotgan chora tadbirlar to'g'risida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: dorivor o'simliklar, dori-darmon, qora yalpiz, efir moyi, mentol, kurtagi, ildizi, ildiz poyasi, tugunagi, piyozi, po'stlog'i, bargi, guli mevasi, danagi, turli vitaminlar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-maydagi Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash hamda davolashda ulardan keng foydalanish tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-251-sonli qarorida belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida, so'nggi yillarda dorivor o'simliklarni muhofaza qilish tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, dorivor o'simliklar yetishtiriladigan plantatsiyalar tashkil etish va ularni qayta ishlash borasida islohotlar amalga oshirilmoqda.

Mahalliy floraga mansub 4.3 ming ortiq o'simlik 750 turi dorivor hisoblanib ulardan 112 turi ilmiy tibbiyotda foydalanish uchun ro'yxatda faol qo'llanib kelinmoqda. Dorivor o'simliklarni aholi xonadonlarida yetishtirish maqsadida fermer-dexqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi o'rmon xo'jalik qo'mitasi tuman xokimliklari bilan birga ishlash, aholi xonadonlarida dorivor o'simliklarni yetishtirish ishlarini yo'lga qo'yish bo'yicha chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Aholi salomatligini yaxshilash va ularning daromadlarini oshirishda dorivor o'simliklar yetishtirish ishlarini yo'lga qo'yish muhim hisoblanadi. Bugungi kunda dorivor o'simliklarga qiziqish tobora ortib bormoqda. Butun dunyo pandemiyasida insonlar sog'lig'iga alohida e'tibor berish, salomatlik sirlaridan xabardorligi ortishi qarigan va surunkali kassaliklarga chalingan insonlar immun tizimini faollashtirish uchun tabiiy vositalarni afzal ko'rishi, tabiiy vositalarning mutloq zararasizligi va foydasi ushbu sohada ilmiy tadqiqotlarga investitsiyalar hajmining xalqaro bozorlardagi dorivor o'simliklarga bo'lgan talabining keskin ortishiga sabab bo'ladi.

Yuksak o'simliklarning 1200 ga yaqini dorivorlik xususiyatiga ega. O'tgan davr mobaynida 9 ta dorivor o'simliklar yetishtirish klasteri tashkil etilib, ular tomonidan moychechak, kovrak, limono't, qalampir yalpiz, qizilmiya, za'faron va boshqa dorivor o'simliklar yetishtirilmoqda. Dorivor o'simliklar odam va hayvonlarni davolash

kasalliklarining oldini olish, shunindek oziq-ovqat, atir-upa va kosmetika sanoatida ishlatiladigan o'simliklar giyohlardir. Yer yuzida dorivor o'simliklarning 10-12 ming turi borligi aniqlangan. 1000 dan ortiq o'simlik turining kimyoviy xossalari tekshirilgan. O'zbekistonda o'simliklarning 700 dan ortiq turi borligi aniqlangan. Shulardan tabiiy sharoitda o'sadigan madaniylashtirilgan 120 ga yaqin o'simlik turlaridan ilmiy va xalq tabobatida foydalaniladi. Hozirgi davrda tibbiyotda qo'llaniladigan dori-darmonlarning qariyb 40-47% o'simlik xomasholaridan olinadi. Dorivor o'simliklarning qurutilgan o'ti, kurtagi, ildizi, ildiz poyasi, tugunagi, piyozi, po'stlog'i, bargi, guli mevasi, danagi va qayta ishlangan sharbati, qiyomi efir moyi va boshqalar dori darmon tarzda foydalaniladi.

Dorivor o'simliklar 2 xil usulda tasniflash qabul qilingan:

1) ta'sir qiluvchi moddalarining tarkibiga qarab alkaloidli, glikozidli, efir moyli vitaminli va boshqalar.

2) Farmakologiyik ko'rsatkichlarga qarab tinchlantiruvchi, og'riq qoldiruvchi, uxlatuvchi yurak tomir tizimiga ta'sir qiluvchi markaziy nerv sistemasini qo'zg'atuvchi qon bosimini pasaytiruvchi va boshqalar. Dorivor o'simliklarning organizmga ta'siri uning tarkibidagi kimyoviy birikmalarning miqdoriga bog'liq bo'ladi.

Qalampir yalpiz (мята перечная)–*Mentha piperta*. Qalampir yalpiz yasnatkadoshlar (labguldoshlar)-*Lamiaceae* (*Labiatae*) oilasiga mansub bolib boyi 30-100 sm keladigan kop yillik ot osimlik hisoblanadi. Poyasi bir nechta tik osadi, tort qirrali barglari choziq tuxumsimon nastarsimon o'tkir uchli arrasimon notekis qirrali bolib, qisqa bandi yordamida poyada qarama-qarshi o'mashgan. Qizil binafsha rangli mayda gullari poyasi bilan shoxlari uchida gul joylashgan boshhoqsimon to'pgul xosil qiladi. Yalpizning mevasi to'rta yong'oqcha. Yalpiz iyun, sentyabr oylarida gullaydi. O'simlik turi bo'lib dorivor shifobaxsh hisoblanadi. Qalampir yalpiz MDX mamlakatlarida yovvoi holda uchramaydi. U Ukraina Bellarussiya Moldava Respublikalarida, Rossiyaning Krasnador o'lkasi hamda Voronej viloyat Markaziy Osiyo davlatlarida madaniy holda o'stiriladi. Bu ajoyib o'tkir xushboy xidga ega o'simlikni bir nechta boshqa nomlari bo'lib u xalq orasida ko'proq sovuq yalpiz, ingliz yalpiz nomlari bilan ataladi. Hozirgi kunda yalpizning 25 turi mavjud. Suv yalpizi, dala yalpizi shular jumlasidandir, lekin turlar ichida shifobaxshli sifati yuqori bolganligi sababli farmaseftika asosan xalq tabobatida qalampir yalpizdan foydalaniladi. O'simlik poyasi barglari va guli efir moylari oshlovchi achchiq biologik faol moddalarga juda boy. Bundan tashqari o'simlik tarkibida shakar yog fitosindlar C va P vitaminlari karotin mineral tuzlar bor. Moy tarkibiga ega bo'lganligi sababli qalampir yalpiz ko'pchilik xovlilarida shifobaxsh taom tayyorlashda qo'llaniluvchi noyob o'simlik sifatida o'stiriladi. Yalpizning ikkinchi nomi Labret deb ataladi. Yalpizning O'zbekistonda 4 ta turi bor. Bular suv yalpizi, Osiyo yalpizi, achchiq yalpiz, jingalak yalpiz, yovvoyi holda o'sadi. Yalpiz yorug' sevar, nam sevar o'simlik hisoblanadi.

Qalampir yalpiz bargi tarkibida 2.5-3 % gullarida 4-6 %, 3 % mentol bor. Eferlar va boshqa brikmalar bugungi kunda 20 dan ortiq turlari keng qo'llanilib kelinmoqda.

Yalpizni organizmga foyda ekanligi tog'risida bosh og'rigi, ovqat hazm qilish kasalliklari, isitma va ruxiy kasalliklarida yalpiz asosida davolashni buyurgan. Rossiyada yalpiz o'simligi ko'katlarining eng sevimli turlaridan biri hisoblanadi. Yalpizning foydali xususiyatlari o'simlik moddasi tarkibiga bo'g'liq bo'lib u yalpiz efir moyi mentol yuqori konsentratsiyasi bor. Aynan shu mentol modda o'tining ta'mini, xidini aniqlaydi. Shuningdek, yalpizni foydali xususiyatlarini shu bilan birga o'tni kaloriya miqdori juda past bo'lib 70 kkalni tashkil etadi. Yalpizning kimyovi tarkibi 100 gr-3,75 gr oqsil, 6.89 gr uglevod atiga 0.94 gr yog'dan iborat. O'simlikka asoslangan qimmatli organik kislotalar, vitaminlar va mineral tuzlar mavjud bo'lib vitamin tarkibi inson tanasi uchun zarur bo'lgan aralashmalarni o'z ichiga oladi. A, B1 va B2, B3, B6, C va P, Makroutirentlar Ca, P va Na, K, Mg. Zamonaviy tibbiyot amaliyotida yalpizli dori-darmonlar salmoqli ulushga ega. Yalpizdan olinadigan efir moylari sanoat miqyosida validol, karvalol, olementin, enatin, anestezol, bormentol, pentisiion mentolli, Qalam zelenin tomchilari eritmasi dorilar tarkibiga kiritilgan. Yalpiz moyi yuqori darajali antibacterial faoliyati mikroblarga qiron keltirish bilan ajralib turadi. Ayni bahor pallasida yalpiz ko'katlari boshqa shifobaxsh bo'lmish giyohlar bilan birgalikda foydalanadi. Qalampir yalpiz qadimda xalq tabobatida turli kasalliklarni davolash uchun ishlatiladi. Abu Ali Ibn Sino qalampir yalpiz bilan bosh, quloq og'rig'ini davolagan xamda ovqat hazimini yaxshilash yaralarni sariq va boshqa kasalliklarni davolash uchun ishlatilgan. Qalampir yalpiz bargi va efir moyining dorivor preparatlari damlamasi nastaykasi va yalpiz suvi ko'ngil aynish, qusishni to'xtatishda xamda ovqat hazmni yaxshilashda ishlatiladi. Yalpiz suvi yana ogiz chayqash dorilarni tamini yaxshilash uchun qollaniladi. Mental preparatlari quloq, burun nafas yollari kasalliklarida hamda tish og'rig'ini qoldirish uchun ishlatiladi. Bargi tinchlantiruvchi. Teri shamollash kasalliklarini yengishda asablarni tinchlantirishda bosh og'rig'ini qoldirishda xam yalpiz yog'idan foydalanish yaxshi natija beradi. Qalampir yalpizni Respublikamizga dorivor o'simliklar yetishtirishga ixtisoslashtirilgan xo'jaliklarda keng miqyosida farmaseftikaga yetishtiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Ahmedov O'.A., Xolmatov X. X. Chilonjiyda dorivor o'simlik. Toshkent, Ibn Sino nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi. 1993 y. 18-bet.
2. Berdiyev E.T Turdiyev S.A Jiyda va chakanda monografiya – Toshkent, UzR FA minitipografiyasi, 2013.-122 bet.
3. Berdiyev E.T Turdiyev S.A Pirnapasov B.S. chilonjiyda shifobaxsh ne'mat (risola)- Toshkent, UzR FA Minitipografiyasi, 2013-42 bet.
4. Berdiyev E.T Qayimov A.K., Abdullayev R M., Turdiyev S.A chakandani istiqbolli shakllarini tanlash va ko'paytirish bo'yicha tavsiyanoma.- Toshkent ToshDAU taxririyyot nashriyyot bo'limi ,2014.-12 bet.